



## O'QISHDAN TASHQARI ISHLAR JARAYONIDA BO'LAJAK TARIX O'QITUVCHILARINING KASBIY KOMPITETSIYALARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

*Suvonkulov A.Z.*

*Jizzax davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi*

**Tayanch so'zlar:** tarix, kompetitsiya, oliy ta'lim, metodikt, malaka, strategiya, o'qituvchi, tamoyil, maqsad.

**Ключевые слова:** история, конкуренция, высшее образование, методика, квалификация, стратегия, преподаватель, принцип, цель.

**Key words:** history, competition, higher education, methodology, qualification, strategy, teacher, principle, goal.

### **РЕЗЮМЕ:**

O'qishdan tashqari ishlar jarayonida bo'lajak tarix o'qituvchilarining kasbiy kompetitsiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish haqida qisqacha mazmuni bayon etilgan.

### **РЕЗЮМЕ:**

В ходе внеклассной работы представлены итоги совершенствования методики формирования профессиональных компетенций будущих учителей истории.

### **SUMMARY:**

A brief SUMMARY: of the improvement of the methodology for developing professional competencies of future history teachers in the process of extracurricular activities is presented.

Oliy ta'lim tizimida yuqori malakaga ega bo'lishi va kasbiy faoliyatida muhim mavqega ega bo'lishi kerak bo'lgan o'qituvchilarni tayyorlash samaradorligini oshirish mamlakatimizning strategik vazifalaridan biri va barcha darajadagi ta'lim muassasalarining asosiy maqsadi hisoblanadi. Ta'lim tizimini modernizatsiya qilishda oliy ta'lim muhim rol o'ynaydi, uning tamoyillari bo'lajak tarix fani o'qituvchilarining ta'lim va kasbiy funksiyalarini amalga oshirishda bilim va ko'nikmalarini takomillashtirish, rivojlanish qonuniyatlari to'g'risida tushunchalarni shakllantirishdan iborat. Oliy ta'lim tizimida bo'lajak tarix fani o'qituvchilarilari alohida rol o'ynaydi, u oqilona va tanqidiy fikrlashi, o'quv jarayonini rejalashtirishi va tahlil qilishi, yoshlarni tarbiyalash va ularning bilimlarini takomillashtirishda yuzaga keladigan muammolarni muvaffaqiyatli hal qilishi kerak. Ta'lim tizimining

zamonaviy rivojlanishi sharoitida bo'lajak tarix fani o'qituvchilarining didaktik madaniyatining asosiy tamoyillarini o'rganishdir. Bo'lajak tarix fani o'qituvchilarining malakasi va pedagogik mahorati sifat xususiyatlarida namoyon bo'ladi: yo'nalishi, malakasi, kasbiy va pedagogik vazifalar va didaktik ko'nikma va malakalarni egallash darajasi. Ular kasbiy shakllanish, umumiy va pedagogik madaniyatni rivojlantirish, shaxsiy va kasbiy ahamiyatga ega fazilatlarni tarbiyalashni ta'minlaydigan oliy ta'lim muassasalarida o'qitish jarayonida allaqachon shakllanishi kerak. Bo'lajak tarix fani o'qituvchilarining rivojlanishi, bir tomondan, shaxs tuzilishining elementlari, boshqa tomondan – oliy ta'limning pedagogik muammolarini ijodiy hal qilish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma, malakalar bilan belgilanadi. Yaxlit shaxsni shakllantirishda bilan bir qatorda, har qanday yoshdagi o'quvchining salohiyati, ongi, ruhiyati va intellekti faol ta'sir ko'rsatadi, bu esa barqaror ijobiy motivatsiya, qadriyat yo'nalishlari, kasbiy va intellektual rivojlanishda qiziqish va ehtiyojlarni shakllantirishga yordam beradi. Bo'lajak tarix fani o'qituvchilarini tayyorlashda ularning didaktik madaniyatini shakllantirish bog'liq bo'lgan psixologik-pedagogik fanlar muhim o'rin tutadi. Didaktik madaniyat deganda olimlar bo'lajak tarix fani o'qituvchilarining o'quvchilar bilan ishlashning didaktik shakllari va usullarini samarali qo'llash, ijodiy fikrlash, mustaqil ravishda yangi bilimlarni ishlab chiqarish qobiliyatini rivojlantirish tizimi sifatida tushunadilar. Olimlar oliy ta'limda zamonaviy didaktik o'qitish usullarining yuqori samaradorligini ta'kidlashmoqda. Tadqiqotchi A.A.Usov kasbiy didaktik madaniyat ta'rifini bo'lajak tarix fani o'qituvchilarining kasbiy va shaxsiy fazilatlarini shakllantirish va o'z-o'zini rivojlantirishni amalga oshirish imkonini beradigan pedagogik faoliyatning zarur sharti sifatida talqin qilishni taklif qiladi. Muallif nuqtai nazaridan, madaniyatning ushbu turi o'qituvchining nafaqat o'z faoliyatidagi muammoli tomonlarini topish qobiliyatini hosil qiladi, balki ularni hal qilishning eng yaxshi usullarini, rivojlanish istiqbollari aniqlash ko'nikmalarini to'liq shakllantirishni nazarda tutadi, fanning yangi yutuqlari va pedagogik tajriba o'zlashtirishga hissa qo'shadi. Pedagogika fanlari sohasidagi mutaxassis A.V.Perevozniiy didaktik madaniyatni zamonaviy o'qituvchi shaxsiyatining kompetensiya xususiyatlarini shakllantiradigan pedagogik faoliyatda amaliy amalga oshirish nuqtai nazaridan o'quv dasturlarini o'z ichiga olgan ijtimoiy tajribaning bir turi sifatida izohlaydi. Har bir o'qituvchi va talaba jamiyatning didaktik madaniyatini ishlab chiqaradi va shu bilan birga o'z pedagogik amaliyotida pedagogik ishning usullari, shakllari, vositalari ko'rinishida paydo bo'ladigan tendensiyalarni idrok etadi va takrorlaydi, ularning yig'indisi tarbiyaviy vazifalarni hal qilishni ta'minlaydi.

Olimlar o'qituvchining ijodiy imkoniyati asoslari kasbiy tayyorgarlik jarayonini shakllanadi, hosil qilinadi va keyinchalik uning kasbiy faoliyatida rivojlanadi d4 hisoblaydilar. O'qituvchining ijodiy imkoniyatlarini resurslariga ular o'qituvchini



madaniy, kasbiy va umumta'lim darajasini, uning ehtiyojlari va qiziqishlari, yaf umuman uning faoliyati va xususan kasbiy faoliyati motivlarini belgilovchilafc kiritadilar. O'qituvchining ijodiy imkoniyatlarini rivojlantirish jarayonining asosi talab etilmagan resurslari uning o'zida emas, balki uning tocliq foydalanii magB irnkoniya tlarida va mazkur imkoniyatlardan foydalanishga yondashuv tizimicl yotadi. Boclajak ocqituvchining ijodiy shaxsini shakllantirishga mos ijodiy muhi yordam berishi mumkin. N.Ya.Kantorovich pedagogika oliy ta'lim muassasasi bunday atrof-muhitni yaratish zaruratini ta'kidlaydi: "Pedagogika oliy ta'lim muassasasi - bu o'ziga xos start maydoni bo'lib, undan tarbiyalanuvcMar katte hayotga yocl oladilar. Ulaming kelajaklari ham mazkur maydon qanday boclishigJ ko'p jihatdan bogliqdir. Bu yerda u boclajak o'quvchilar bilan muloqot qilishgJ ocrganadi. Bu yerda boclajak tarbiyachining eng qimmatli shaxs sifatleri shakltanadfl Bu yerda u nafaqat o'qitishning yangi metodikalari, balki yangi bilimlami izlab] topish usullarini ham egallaydi. Shu tariqa, ocqituvchining kelgusi kasbiy mahoratfl uning shaxsini shakllantirish qanday shaioitlarda amalga oshirilishiga bogliqdir". Masalaning bunday qo'yilishi tufayli zamonaviy ocqituvchining kasbiy kompetentligi muammosini ko "rib chiqish zarurati yuzaga keladi. Pedagogik adabiyotlarda "kasbiy kompetentlik" tushunchasidan tashqari ocqituvchining "tayyorgarligi" va "mahorati" tushunchalari mavjud. Odatda olimlar tomonidan tayyorgarlik muayyan faoliyatni boshlashdan oldingi holati sifatida qaraladi (I-ilova). V.A.Slastenin, I.F.Isaev va A.I.Mishenko kasbiy tayyorgarlik mohiyatini yaxlit holat, shaxsning asosiy imkoniyatlaiga bog'liq bo'lgan uning integrativ ifodasi, gnoseologik, akseologik, ijodiy va kommunikativ jihatlarda qaraladigan pedagogik faoliyat sub'ekti sifatida tushunadilar. O 'qituvchining mahorati - bu integral sifat, «haqiqiy o6z kasbida ishlovchi va bolalami sevuvchi har bir pedagog yetisha oladigan yuqori va doimiy takomillashtiriladigan tarbiyalash va o'qitish san'ati. Pedagog o'z ishining ustasi - 18 Ini o'z fanini chuqur biladigan, tegishli fan yoki san'at sohalari bilan yaxshi tanish umumiy va ayniqsa, bolalar psixologiyasi masalalarida amaliy bilimga ega lo1 Igan, o'qitish va tarbiyalash metodikasini mukammal biluvchi yuqori madaniyatli Imiiluxassisdir". A.C.Makarenko, Yu.P.Azarova, N.V.Kuzmina ishlarida o'qituvchining Illhoratga erishish yo'llari belgilangan. Biz o'qituvchining kasbiy kompetenffigini qit nvchi kasbiy tayyorgarligi va mahoratining asosiy toifasi sifatida aniqlaymiz. Ixtiyoriy kasbiy faoliyat, jumladan pedagogik faoliyat mutaxassisda kasbiy I •>nipentlikning mavjudligini nazarda tutadi. Kompetentlik - bu ma'lum bilim va lnjiibalar doirasiga egalik; kompetent - (lot. somretent - qobiliyatli) - biluvchi, mi'lum bir sohada bilimga ega bo'Igan; o'zining bilimi yoki vakolatlari bo'yicha Inror-bir ishni bajarish yoki hal qilish; biror-nima to'g'risida fikr bildirish huquqiga oqdi bo'lgan. Kasbiy kompetentlik - kocp qirrali va kocp jihatli tushuncha, u jamiyatda sodir boMuvchi o'zgarishlarga



mos ravishda o'zgaradi hamda turli nuqtai nazarlar ostida k) 'riladi. O'qituvchining "kasbiy kompetenfligi" tushunchasi mazmuniga zamonaviy yondashuvlar tahfli ko'rsatishicha, mazkur muarnmo hozirgi vaqtda uning talqiniga Inrlichamazmun baxsh etuvchi, mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan faol o'rganilmoqda. Ye.V.Bondarevskaya kasbiy kompetentlik tushunchasini uning asosiy komponenti hisoblangan, "ta'limda hunarmandni" emas, balki yuqori madaniyatli mutaxassisni shakUantirishga yordam beradigan "pedagogik madaniyat" tushunchasi bilan bog'laydi. S.Ya.Batishev va B.S.Gershunskiy kasbiy kompetentlikni "savodxonlik kasbiy kompetentlik - madaniyat-mentalitet" umumiy bog'cinidagi ta'lim natijasi sifatida qaraydi. B.S.Gershunskiyning fikriga ko'ra, kasbiy kompetentlik kasbiy bilimlar, fanni o'zlashtirish ko'nikmalari va ulami faoliyatda amalga oshirish malakalarining shakllanganligining ma'lum darajasi, sifat va natijaviy ko'rsatkichini aks ettiradi. Uning yozishicha, kasbiy kompetentlik, asosiy ravishda kasbiy ta'limining darajasi, insorming tajribasi va individual qobiliyatlari, uning uzluksiz mustaqil ta'limga va o'z-o'zini takomfflashtirishga motivli intilishi, ishga ijodiy va mas'uliji munosabati bilan aniqlanadi. U kasbiy kompetentlik strukturasi funksiyasi savodxonlikdan tashqari, fan mazmunidan ko'ra shaxsning shakllantiriladigan sifatleri: mas'uliyat, ijod, qiziquvchanlik, tirishqoqlik, yangi bilimlami egallael intilish, haqiqatni estetik idrok etish, o'z ishining haqiqiy professionalini tasawj etib boelmaydigan yuqori axloqiylikni ajratadi. Kasbiy kompetentlik o'z ichida falsafiy, psixologik, ijtimoiy, madaniy, shaxe tartibdagi jihatlamiqamrab oluvchi tizim sifatida ifodalanishi mumkin (T.G.Braje Amerika ijtimoiy fanida kompetentli mutaxassis modeliga, shuningdek, tartihintizomlilik, mustaqillik, kommunikativlik, o'z-o'zini rivojlantirishga intilish kiritiladi. Shved olimlari kasbiy kompetentlik - bilimlaming intellektual, ma'naviyJB ijtimoiy, estetik, siyosiy jihatleri integratsiyasi deb hisoblaydilar. Ko'pgina mahalliy hamda xorijiy olimlar pedagogning kasbiy kompetentM kasbiy bilimlar va konikmalar qadriyatli yo'nalishlar, uning faoliyati motivlare nutqida, muloqot uslubida aks etuvchi umumiy madaniyati, o'zining ijodiy imkoniyatini rivojlantira olish qobiliyati, shuningdek, fanni o'qitish metodikasi egallaganligi, talabalami tushunish va ular bilan o'zaro aloqa qilish qobiliyati, ulargaB hurmat, kasbiy ahamiyatli shaxsiy sifatleri bilan aniqlanishi to'g'risidagi fikrlargal qo'shiladilar. Mazkur komponentlardan hatto biiining ham bo'lmasligi butun tizimniB buzadi va pedagog faoliyatining samaradorligini pasaytiradi. Shu tariqa, kasbiy kompetentlik shaxsning muvaffaqiyatli kasbiy faoliyatga,! uning ahamiyatiga va uni amalga oshirishda qo'llaniladigan, barcha bilimlar hamda\* ko'nikmalar birligidagi ma'lum bir o'ziga xos vazifalarga munosabati sifatidaB ta'riflanishi mumkin. Zamonaviy o'qituvchining asosiy tashkil etuvchilarida to'xtalib 1 o'tamiz. Bugungi kunda o'qituvehi oz darajada "fan o'qituvchisi" rolida va ko'proq 1 darajada ijtimoiy



tarbiyaviy muhit tashkil etuvchisi rovida ifodalanadi, birinchi | darajali vazifalar o'quvchining o'qishning barcha bosqichlaridagi maksimal faolligi tamoyili bo'yicha uning o'qituvchi bilan o'zaro munosabatlarini qurishga imkon beruvchi yondashuvlarni izlash hisoblanadi. O'qituvchi va o'quvchining ijodiy (muntazamligi) o'quv vaziyatining qolgan barcha tavsiflariga ma'lum talablarni jami yetdigan asos sifatida xizmat qiladi. V.A.Slastenin pedagogning kasbiy kompetentligi pedagogik faoliyatni amalga oshirishga nazariy va amaliy tayyorgarlikning yaxlitligida namoyon bo'ladi va uning iqtisodiy (svoynaligini) ifodalaydi deb hisoblaydi. O'qituvchining kasbiy kompetentligi •Imklurasini izchil olib boriluvchi va ularning bir qismi avtomatizatsionlashi mumkin Vlgan, nazariy bilimlarga asoslangan va shaxs rivojlanishi vazifalarini hal etishga (yigilgan hatti-harakatlar yigindisi sifatidagi pedagogik ko'nikmalar orqali ochib berilishi) mumkin. V.A.Slastenin pedagogik ko'nikmalarning to'rt guruhini ajratadi: In'lnn mazmunini aniq pedagogik vazifalarga "kocchirish"ni bilish; mantiqiy lii^itllangan pedagogik tizimni qurish va harakatga keltirishni bilish; tarbiya komponentlari va omflari ocrtasidagi o'zaro aloqadorliklarni ajratish va harakatga keltirishni bilish; pedagogik faoliyat natijalarini hisobga olish va muomlasini bilish. O'qituvchining kasbiy kompetentligi faoliyatning boshqaruv, pedagogik, kommunikativ, diagnostik va tadqiqotchilik komponentlarini o'z ichiga oladi hamda inuqsadlarga erishish bo'yicha pedagogik vazifalarni optimal ravishda amalga oshirish uchun zarur bo'lgan kasbiy bilimlar va ko'nikmalarning shakllanganligi darajasi, kasbiy ahamiyatli shaxs sifatlarining rivojlanish darajasi bilan aniqlanadi.

#### Adabiyotlar:

1. Makarova L.N. Specificity of vocational and didactic culture of teachers of supplementary education//Bulletin of Tambov University. Series: Humanities. 2011. P. 142–149.
2. Perevoznyi A.V. Didactic culture: essence, formation, development//Innovations in education. 2012. № 3. P. 122–133.
3. Тырина М.П., Куликова Л.Г., Фазылбеков И.Ш. Уровневая дифференциация развитости дидактической культуры педагога в условиях инновационного образования // Мир науки, культуры, образования. 2019. № 6 С. 385–388.
4. Usmonov Q., Sodiqov M.O'zbekiston tarixi (1917-1991-yillar): Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari 1-bosqich o'quvchilari uchun darslik.-T:«Sharq»5 2013.
5. Usmonov Q. O'zbekiston tarixi(Milliy istiqlol davri): Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari 2-kurs o'quvchilari uchun darslik. - T: «O'qituvchi», 2011.
6. Уразова М.Б. Совершенствование технологии подготовки будущего педагога профессионального образования к проектировочной деятельности: Дисс. ... док пед. наук. - Т., 2015. - 287.
7. Yarmatov R.B. Bo'lajak tarix o'qituvchilarining o'quv-ilmiy-tadqiqot ishlarini takomillashtirish // Monografiya Toshkent 2015. Turon iqbol nashiryoti.